

PUDRAT SNARTNOMASI

Muborak tuman Xalq ta'limi bo'limi, (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi,) nomidan **Nizom** asosida harakat qiluvchi **I.Usmonov** bir tomondan va (keyingi o'rinlarda **pudratchi deb yuritiladi**) nomidan **Nizomi** asosida harakat qiluvchi **Pardozchi muxandis XK A.Erkaev** ikkinchi tomondan quyidagilar tug'risida mazkur shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: tuzilgan loyiha sveta hujjatlariga asosan joriy tamirlash ishlarini bajarishni, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi 300 000 000.00 so'mni tashkil etadi. (Uch yuz million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi: ishlarni o'z muddatida bajarish, ya'ni 2022-yil 08-Noybrdan 2022-yil 08-Dekabr kuniga qadar.

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: "Buyurtmachi" tamirlash ishlarini boshlash uchun "Pudratchiga" shartnoma narxining 30% yoki 90 000 000.00 (Tuqson million) so'm miqdorida oldindan to'laydi. Qolgan 70% yoki 210 000 000.00 (Ikki yuz un million) so'mni yakuniy to'lovni "Pudratchiga" ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat f-2, f-3, yoki dalolatnoma taqdim qilingandan song pudratchiga buyurtmachi tomonidan to'lov amalga oshiriladi.

3.2. To'lov shakli: to'lov cheklariga asosan. Amalga oshiriladi.

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

3.4. Pudratchi ob'yekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'yektga mulk xuquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'yektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'yektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

3.5. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritishni talab qilish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Buyurtmachi shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Tugashi – 2022 yil 31-Dekabr

5. ISHLARNI BAJARISH

5.1. Buyurtmachi qurilish maydoniga o'z vakilini - texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

5.2. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

5.3. Pudratchi texnik kuzatuvchini ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik kuzatuvchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan ta'mirlash ob'yektida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

5.4 Pudratchi ob'yektda bajarigan ishlarining xajmlarini ijro xujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni Buyurtmachi tomonidan mazkur ob'yekt uchun birlashtirilgan texnik kuzatuvchi bilan ob'yektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni (belgilangan shakllarda ijro xujjatlari bilan) Buyurtmachiga topshiradi.. 8.5 Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'yektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

5.6 Pudratchi ob'yektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

5.7 Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

5.8 Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

5.9 Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchi va mablag'lari xisobidan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

5.10 Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi. Pudratchi nazorat daftarida Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda kursatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish hajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

6. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolanganidan keyin 10 (O'n) kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

6.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun

Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektini qabul qilib olish.

7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

7.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

7.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

7.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

8. FORS-MAJOR

8.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

8.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

8.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

8.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 2 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

9.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi. **IX. KORRUPSIYAGA**

10. QARSHI KELISHUV

10.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

10.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

10.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

10.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga etkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishiga haqli emas.


11. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

Pardozchi muxandis XK
Manzil Chiroqchi tuman Bobur MFY
Hisob-kitob
20208000204177068001
Bank Toch MFO:01 037
INN: 203954087
Tel.91-641-01-01

Rahbar:

A. Erkaev




Buyurtmachi:

1. Muborak tumani
xalq ta'limi
bo'limi.Do'stlik MFY
17/1-uy tel 67-2-24-24
byudjetdan mablag'
oluvchi inn 200699328
Hisob-kitob raqami

401722860102347092100075011
O'z.Res.Moliya vazirligi
gaznachiligi.h/r
23402000300100001010
STIR 201122919 bank nomi
Markaziy bank Toshkent sh
boshqarmasi XKKM MFO
00014 **Rahbar:**

I.O.Usmonov.

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	IXTIYOR USMONOV OTANIYOZOVICH
	Imzolangan sana	08.11.2022 01:27
	Hujjat kodi	JB2707511537
	Hulosa kodi	ZS1183733742

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

ZS1183733742

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Joriy ta'mirlash, Pudrat shartnoma**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Muborak tumani xalq ta'limi tomonidan 07.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Muborak tuman
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



I.A.XO‘JAMURODOV

07.11.2022

Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Muborak tumani xalq ta'limi bo'limi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to'lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Muborak xalq ta'limi bo'limi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni;

Telegram-kanali (“@anticorbot”);

Muborak tuman Xalq ta'limi bo'limi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

TOMONLAR:

Bajaruvchi
Pardozchi muxandis XK
(imzo) A. Erkaev



Muborak tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri
I. Usmonov.



(imzo)

«ТАСДИКЛАЙМАН»



Муборак тумани халк таълими бўлими мудири

И.О.Усмонов

08.11. 2022 йил

№ 10

Муборак шаҳри

Муборак тумани халк таълими бўлимига карашли 10- умумий урта таълим мактаб биносини том қисмини жорий таъмирлаш танлов асосида шартнома тузиб смета проект асосида жорий таъмирлаш комиссиясининг

ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:

И. О.Усмонов.

Комиссия раиси Мудир

АЪЗОЛАРИ:

Р.Неъматов

Қурилиш булим бошлиғи

С.Рашидов

Қурилиш бўлими бош мутахассиси

Ж.Элов

Бош ҳисобчи

Р.Бобобеков

Давлат харидлари ва шартномалари

К.Тураев

Иситиш тизими ва қозонхоналарни назорат

Кун тартибида куриладиган масала:

Муборак тумани халк таълими бўлимига карашли 10- умумий урта таълим мактаби биносини том қисмини жорий таъмирлаш 2022 йил Ноябрь ойлари “Пардозчи муҳандис ”ХК билан шартнома қилиш ва шартномани тасдиқлаш туғрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, Муборак тумани халк таълими бўлимига карашли 10- умумий урта таълим мактаби биноси том қисмини жорий таъмирлаш бўйича 3 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар қуйидагича:

Танлов конкурс бўйича 2022 йил 04 Ноябрь кунда лот № 171317 сонли протокол эълон қуйилгандан кейин 3 та ташкилот узини таклифлари билан

қатнашди ва энг юкори балл “Пардозчи муҳандис ” ХК олди ва 2 кун муҳокамада қуйилди ҳамда бошка эътирозлар булмагандан кейин ” Пардозчи муҳандис ” ХК билан шартнома тузилди.

ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОП ҚИЛАДИ:

1. “Пардозчи муҳандис” ХК ғолиб деб топилсин.
- 2.” Пардозчи муҳандис ” ХК томонидан таклиф этилган иш таклифлари бўйича шартнома тузиш бош ҳисобчи Ж. Эловга топширилсин.

3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш Курилиш булими бошлиги Р.Неъматовга юклатилсин.

Комиссия раиси:

АЪЗОЛАРИ:



И.О.Усмонов

Р. Неъматов

С. Рашидов

Ж. Элов.

Р.Бобобеков

К.Тураев